



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OZIQ-OVQAT SANOATIDA  
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*ATMU magistranti*

*Turayeva Jasmina Sanjar qizi*

*E-mail: [jasminaturaeva455@gmail.com](mailto:jasminaturaeva455@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda oziq-ovqat sanoati korxonalarida klasterli boshqaruvi mexanizmini rivojlantirish, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rghanish, ushbu sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab quvvatlash muhim sanaladi.

**Kalit so'zlar:** klaster, oziq-ovqat sanoati, boshqaruvi, boshqarish mexanizmi, boshqaruvi obyekti, boshqaruvi usullari.

O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi o'sib borgan sari, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlikning ahamiyati yanada kuchayib bormoqda. Chunki bugungi kunda oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarning aksariyati qismi hissadorlik jamiyatlariga aylangan, kichik korxonalar va mikrofirmalar esa to'liq xususiy hisoblanadi. Biroq, mamlakatimiz o'zo'zini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatiga erishmoqda, ammo respublikada ishlab chiqarilmaydigan ayrim turdag'i mahsulotlar chetdan import qilinmoqda. Binobarin, har qanday mamlakatni uning iqtisodi qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jalik aloqalariga jalb qilmasdan to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Bizga ma'lumki iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar esa har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «...milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va



barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilma loyihamalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish; xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllan-tirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish; tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish darkor»[1].

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi "Oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va narxlar barqarorligini ta'minlash, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht – 25 foiz, meva-sabzavot – 28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari ko'rsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha chorralarni nazarda tutish" alohida vazifalar belgilangan. Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning klaster tizimi, raqamli texnologiyalar, bozor talablariga moslashuvchan innovatsion yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaratish, korxonalar



faoliyatini boshqarishda klasterlarni shakllantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar va ularga turli asosiy va qo‘sishimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi tizimlar faoliyatini klasterli yondashuv asosida tashkil etish va boshqarishda davlat xususiy sherikchilik mexanizmi asosida klasterning moddiy oqim jarayonlarini samarali nazorat qilishning yagona tizimiga integratsiya qilish soha korxonalarining faoliyat rentabelligini yanada orttirishning samarali usullaridan sanaladi. Klaster faoliyatida ishtirok etuvchi bir necha hamkorlar, biznes muhiti elementlarini o‘z ichiga olgan klaster tarkibidagi biznesjarayonlarni boshqarish tashkiliy hamkorlik asosida hal etiladigan asosiy masalalardan biridir. Ushbu turdagи hamkorlikning afzallikkari quyidagilardan iborat : – barcha darajadagi ishtirokchilarning yaqin hamkorligi; – ishtirokchilarning ushbu hamkorlikka nisbatan qiziqishi; – biznes va uni tashkil etish etikasi; – uzoq muddatli hamkorlik va unda burchlarning paydo bo‘lishi; – bir-biriga nisbatan ishonch va samimiyat belgilarining mavjudligi. Klaster tuzilmalarida munosabatlar nafaqat sanoqli ishtirokchilari o‘rtasida, balki bir vaqtning o‘zida butun guruhda quriladi, bu esa boshqaruв funksiyalarini bir muvofiqlashtirish aloqasi doirasida integratsiya qilish va birlashtirish jarayonini yanada murakkab va ko‘p qirrali qiladi<sup>5</sup>. Klaster uchun tizimni birlashtirish xususiyati eng muhim jihat hisoblanib, uning kuchlilik darjasи klasterni shakllantiruvchi va mustahkamligini ta’minlovchi omillarning mavjudligi va hajmi bilan belgilanadi[2].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. M.M.Turg‘unov Farg‘ona politexnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti “OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA KLASTERLI BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH”.



3. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar, and Norqobilova Feruza Abdihamidovna. "Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 345-352.
4. Norqobilova.F.A. "XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINI MODELLASHTIRISHDA TIZIMLI TAHLIL QILISH, SINTEZLASH VA OPTIMALLAShTIRISH." International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021.
5. Abdihamidovna, Norqobilova Feruza. "Financial Services to the Residents of the Region in the Field of Crafts." International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 1 (2021): 225-230.
6. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi Tangriyev Abdurahmon, "Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarining boshqarishning marketing strategiyasi".
7. INCREASING THE COMPETITIVENESS OF AGRICULTURAL PRODUCTS AND ITS STRATEGIC APPROACHES A.S.Eshev - associate professor, J.S.Turayeva - student Karshi engineering-economics institute
8. "INCREASING THE COMPETITIVENESS OF AGRICULTURAL PRODUCTS AND ITS STRATEGIC APPROACHES" J.S.Turayeva - student Karshi engineering-economics institute